

**Mentha Piperita Ni Sho`r Tuproqlarda Ko`paytirish Usullari Va Agrotexnik Tadbirlari****Mamatkarimova M Magistr,****To`xtayev B b.f.d, Prof**

Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sho`r tuproqlarda qalampiryalpiz o`simligini ko`paytirish usullari haqida ma`lumot berilgan. Qalampiryalpiz asosan yaxshi tuproqlarda o`sinhga moslashgan o`simlik hisoblanadi. Qalampiryalpizni sho`r tuproqlarda ko`paytirish qiyin. Maqolada sho`r tuproqlarda qalampiryalpizni ko`paytirish usullari haqida ma`lumot keltirilgan. Qalampiryalpizdan meditsina, farmosevtika, kulinariya va sanoatda keng foydalaniladi. Asosan farmosevtikada mentol va efir olinadi.

**Kalit so`z:** *Mentha piperita*, qalamcha, ildizpoya, chirigan go`ng, organik o`g`it, mineral o`g`it, azot, fosfor, kaliy o`g`itlari.

Hozirgi kunda tabiiy holda o`sayotgan dorivor o`simliklarni zaxiralari insonlar ta`sirida kamayib bormoqda. Buning o`rnini to`ldirish va xalqimiz ehtiyojini qondirish maqsadida dorivor o`simliklar turlarini ko`paytirish va ularni O`zbekistonning tuproq- iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda sug`oriladigan mintaqalarda ekib o`stirish maqsadga muvofiq bo`ladi [3]. Labguldoshlar oilasiga mansub qalampiryalpiz ham shunday o`simliklardan biri hisoblanadi. Qalampir yalpiz suv yalpizi (*mentha aquatica*) va boshqosimon yalpiz (*menthe spicata*) ning chatishtirilishidan hosil bo`lgan.

Qalampiryalpizni ko`paytirishni bir necha usullari bor. Bular; urug`dan, qalamchalariva ildizpoyalari orqali ko`paytirish. Urug`dan ko`paytirish juda qiyin usul bo`lib, ko`pincha natija bermasligi mumkin. Bunda urug`lar 0,5 sm dan ko`p bo`lmagan chuqurlikka ekish va kamida 2 hafta ko`chatlar paydo bo`lishini kutish kerak. Yalpizning unuvchanligi yaxshi emas urug`ni ko`p ekish talab etiladi. Nihol 22-24 darajada chiqadi.

Qalampiryalpizni ko`paytirishni samarali usullaridan biri qalamchalardan ko`paytirish hisoblanadi. Buning uchun qalamchalarning yaxshi bargli shoxchalarini olib ularni ildiz o`stirish uchun suvga solinadi. Bunda 2 xil usuldan foydalaniladi;

1. Qalamchalarni keng idishga solinadi va tuproq bilan to`ldiriladi. Bu usul qalampiryalpizni gullar ichida o`stirishda qo`llaniladi. Qalampiryalpiz agressor o`simlik bo`lganligi sababli agar uni ildiz tizimini chegaralamasak hamma joyni egallashi mumkin. O`simlik idishga joylashtirilgandan keyin uni bo`laklarga bo`lish mumkin.

2. Qalamchalarni to`g`ridan-to`g`ri tuproqqa o`tkazish usuli. Bunda kompostdan foydalanamiz.

**Qalampiryalpizni ildizpoyalari ko`paytirish.** Dastlab qalampiryalpiz ekish uchun chuqurligi 10 sm bo`lgan chuqurchalar tayyorlab olinadi. Har bir chuqurchaga kam miqdorda chirindi solinadi. Keyin qalampiryalpiz butasi kovlab olinadi. Ildizpoyasi kesilganda har birida 10 tadan bo`g`in bo`lishi kerak. Bunda qalampiryalpiz stress holatida bo`lganligi sababli, ko`chirib o`tkazishni yaxshi bilish talab etiladi. Keyin ko`chirib o`tkazish uchun tayyorlangan qalampiryalpiz 10 sm li chuqurchalarga o`tkaziladi va sug`oriladi. Ular orasidagi masofa 30-40 sm bo`lishi kerak.

Yalpiz o`stirish uchun mo`ljallangan maydon kuzda 25 sm chuqurlikda haydaladi. Haydashdan oldin yerga gektariga 20 t chirigan go`ng va 100 kg fosfor solinadi. Qalampiryalpiz ildizpoya va qalamchasidan ko`paytiriladi. Ekishdan oldin 8-10 sm qalamchalar tayyorlanadi. Qalamchalar mart-aprel oylarida 10 sm chuqurlikda tayyorlangan jo`yaklarga bir-biridan 20-25 sm masofada ekiladi. Qator oralari 60 sm bo`lgan 1 gektar yerga 7-8 ming qalamchalari kerak bo`ladi. Ekilgandan keyin sug`orish egatlari olinadi va tuproq suvga to`yinginga qadar sug`oriladi. Qalampiryalpizning yaxshi rivojlanib hosil berishi sug`orish va o`g`itlashga bog`liq. Qalampiryalpiz organik va mineral o`g`itlarga juda talabchan. O`simlik ekilgandan 17-20 kun o`tgach yoki yon shoxlari paydo bo`lishi bilan gektar hisobiga 40 kg azot, 20 kg dan kaliy o`g`itlari bilan oziqlantiriladi. Ikkinchi oziqlantirish shonalash fazasida 40 kg azot va 30 kg fosfor o`g`itlarini berish

bilan amalga oshiriladi. Qalampiryalpiz gullash fazasida mineral o'g'itlarni juda ko'p talab qilishini hisobga olib, azotli va kaliyli o'g'itlardan gektariga 30 kg dan solib, oziqlantirish to'xtatiladi. Vegetatsiya davomida birinchi va keying yillar gektar hisobiga 100-120 kg azot, 80 kg fosfor va 60 kg kaliy o'g'itlari bilan oziqlantiriladi. Tuproq doim nam holatda bo'lishi kerak. Bundan tashqari tuproqni yumshatib turish va begona o'tlardan tozalash ham muhim ahamiyatga ega. Yetarli darajada sug'orilmasa o'simlik bo'yim kalta bo'lib, kam hosil beradi. O'simlik ekilgan birinchi yili 8 marta sug'oriladi, 5 marta yer yumshatiladi. Ikkinchi yili sug'orish soni o'zgarmaydi. Qalampiryalpiz bo'sh qolgan yerlarning barchasini egallab, yuqori vegetativ massa hosil qiladi. Shuning uchun qator oralari faqat bahorda yumshatiladi. Uchinchi yili plantatsiya yumshatilmaydi. To'rtinchi yili bahorda dala kultivatorlar yordamida ag'dariladi. Ildizpoyalari yig'ib olinadi va boshqa maydonga ekiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. M. A. Jo'rayeva – Dorivor o'simliklar atlas. "Noshir". Toshkent-2019.
2. O'. Axmedov, A. Ergashev, A. Abzalov, M. Yulchiyeva, D. Mustafakulov, Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi,, Toshkent-2020.
3. <https://www.dissercat.com/content/agrobiologicheskie-osnovy-sortovoi-tehnologii-vozdelyvaniya-myaty-perechnoi-mentha-piperita>